



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G.G., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalarini misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

7. Toshmatov, A. R. (2022). Agrar sohada bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Toshkent: “Iqtisodiyot”.
8. Kramer, G. L., Jensen, C. V. va Sautgeyt, D. D. (2020). Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va agrobiznes. Wiley nashriyoti. (Bozor segmentlari o‘ziga xos bog‘liqlik va vertikal integratsiya nazariyasi).
9. Umurzoqov, U. P. (2022). "O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik klasterlari: muammolar va yechimlar." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiya ilmiy jurnali.
10. Ibragimjonovich Z. I. International experience in regulating competitive relations in the international market of agricultural products //universal journal of academic and multidisciplinary research. – 2025. – T. 3. – №. 29. – C. 10-14.
11. Ibragimjonovich Z. I. Competitive relations between the united states and members of the association of southeast asian nations (asean) in the international market of agricultural products //usa-scientific review of the problems and prospects of modern science and education. – 2025. – T. 1. – №. 6. – C. 11-16.
12. Zaidov I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 2. – №.

UDK: 338.4

**INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILOT RAQOBATBARDOSHLIGIGA
TA’SIRI**

**ВЛИЯНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ НА
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ**

**THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL
COMPETITIVENESS**

Rahimova Nargiza Akram qizi

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Inson resurslarini boshqarish yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xodimlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish tashkilotlarning strategik ustunligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar inson kapitaliga investitsiya kiritish mehnat unumdorligini, innovatsion faollikni va tashkilotning bozor raqobatbardoshligini oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, inson resurslari, raqobatbardoshlik, HR menejment, mehnat unumdorligi, innovatsiyalar.

В данной статье проанализирована роль управления человеческим капиталом в повышении конкурентоспособности организации. В условиях современной экономики развитие знаний, навыков и компетенций сотрудников рассматривается как один из ключевых факторов, обеспечивающих стратегическое преимущество организаций. В ходе исследования были использованы методы анализа научной литературы, изучения статистических данных и сравнительного анализа. Результаты показали, что инвестиции в человеческий капитал способствуют повышению производительности труда, инновационной активности и рыночной конкурентоспособности организаций.

Ключевые слова: человеческий капитал, человеческие ресурсы, конкурентоспособность, HR-менеджмент, производительность труда, инновации.

This article analyzes the role of human capital management in enhancing organizational competitiveness. In the context of the modern economy, the development of employees' knowledge, skills, and competencies is considered one of the key factors ensuring the strategic advantage of organizations. The study employs literature review, statistical data analysis, and comparative analysis methods. The findings demonstrate that investment in human capital contributes to increased labor productivity, innovation activity, and market competitiveness of organizations.

Keywords: human capital, human resources, competitiveness, HR management, labor productivity, innovation.

Iqtisodiyot tarixida uzoq vaqt davomida bo'yluk to'plashning asosiy omili sifatida yer, mehnat va jismoniy kapital (texnika, bino) qaralgan. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Teodor Shuls va Gari Bekker kabi iqtisodchilar tomonidan “inson kapitali” nazariyasi ilgari surildi. Inson kapitali (ing. human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko'nikmalar to'plami hisoblanadi. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi [1]. Bugungi kunda korxonalar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotganligi sababli inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, innovatsion faoliyat, mehnat unumdorligi va xizmatlar sifati xodimlarning kompetensiyalari bilan chambarchas bog'liq. Biroq ko'plab tashkilotlarda xodimlarning malakasini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va iste'dodlarni saqlab qolish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, bu holat ularning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli inson kapitalini boshqarishning tashkilot faoliyati va raqobatbardoshligiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlil qilish, uning mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyatni oshirishdagi rolini aniqlash hamda inson kapitalidan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Inson kapitali va uning tashkilot raqobatbardoshligiga ta'siri masalasi iqtisodiyot va inson resurslarini boshqarish sohasidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson kapitali nazariyasining shakllanishida T. Schultz va G. Beckerning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy samaradorlik hamda mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omili sifatida baholangan. Mahalliy manbalar orasida Yuz.uz saytida e'lon qilingan tahliliy materiallarda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma'lumotlarida esa inson kapitaliga investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va mehnat bozori samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Shuningdek, PMTI va Google korporativ hisobotlarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, xodimlarning bilim va kompetensiyalarini oshirish hamda innovatsion muhitni shakllantirish tashkilotlar raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatilgan. Jahon bankining Human Capital Project dasturi doirasidagi tadqiqotlar ham inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy o'sish va tashkilot samaradorligini ta'minlashning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Tahlil qilingan adabiyotlar inson kapitalini samarali boshqarish mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va tashkilotning bozor sharoitidagi raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida inson kapitali va raqobatbardoshlik masalalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilinib, ularning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi.

Shuningdek, inson kapitaliga investitsiya kiritishning mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat va tashkilot samaradorligiga ta'siri qiyosiy tahlil asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, inson kapitalini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning mehnat unumdorligiga ta'sirini baholash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu omil ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy darajada barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi.

1. Makroiqtisodiy darajadagi natijalar: O'zbekiston Respublikasi misolida

Davlat miqyosida inson kapitalining (ta'lim va sog'liqni saqlash) rivojlantirilishi mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali yalpi mahsulot hajmini oshiradi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma'lumotlariga tayangan holda o'tkazilgan empirik tahlillar quyidagi miqdoriy bog'liqliklarni ko'rsatdi [2]:

Ta'lim tizimiga kiritilgan sarmoyalar samaradorligi: Ta'lim sohasini moliyalashtirish va infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1% ga ko'payishi yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmining 0,52% ga oshishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich malakali ishchi kuchining yangi texnologiyalarni o'zlashtirish tezligi yuqoriligidan dalolat beradi.

Sog'liqni saqlash tizimiga investitsiyalarning ta'siri: Tibbiyot sohasiga qilingan investitsiyalarning 1% lik o'sishi mehnat unumdorligi yaxshilanishi va ish qobiliyatini yo'qotish holatlarining kamayishi hisobiga YaHMni 0,43% ga oshiradi.

2. Mikroiqtisodiy darajadagi natijalar: Google (Alphabet) korporatsiyasi misolida

Korporativ sektorda inson kapitalini boyitish strategiyasi bevosita mehnat unumdorligi va innovatsion faollik ko'rsatkichlarida aks etadi. Google kompaniyasi tajribasi tahlil qilinganda, xodimlarning sog'lig'i, ish muhiti va malakasiga yo'naltirilgan investitsiyalar quyidagi natijalarni berganligi aniqlandi:

Ish vaqtidan samarali foydalanish va motivatsiya: Xodimlarga yaratilgan ergonomik sharoitlar va bepul tibbiy-profilaktik xizmatlar kasallik tufayli ishga chiqmaslik ko'rsatkichini (absenteizm) minimal darajaga tushirgan.

Kreativlik va multiplikativ samora: Kompaniyaning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ichki dasturlari (masalan, ish vaqtining 20 foizini shaxsiy innovatsion loyihalarga ajratish qoidasi) mehnat unumdorligini keskin oshirib, Gmail va Google Maps kabi yuqori rentabelli global mahsulotlarning yaratilishiga zamin yaratgan. Tadqiqot doirasida aniqlangan makro va mikro darajadagi tizimli natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning unumdorlikka ta'siri tahlili [3]

Tahlil darajasi	Obyekt	Investitsiya yo'nalishi	Aniqlangan natija va unumdorlik samarasi
Makroiqtisodiy	O'zbekiston Respublikasi	Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi	Ta'limda 1% o'sish natijasida YaHMda 0.52% o'sish; Tibbiyotda 1% o'sish natijasida YaHMda 0.43% o'sish
Mikroiqtisodiy	Google Korporatsiyasi	Korporativ ta'lim, salomatlik va innovatsion muhit	Ishga chiqmaslik holatlari kamayishi, mehnat motivatsiyasi ortishi va Gmail/Maps kabi yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishi.

Tadqiqot natijalari inson kapitalini boshqarish tashkilot raqobatbardoshligini ta'minlovchi o'ziga xos va strategik resurs ekanligini tasdiqlaydi. Moddiy aktivlardan farqli o'laroq, inson kapitalini boshqarishning samarali tizimini raqobatchilar tomonidan nusxalash imkonsizdir (Resource-Based View nazariyasi). O'zbekistondagi IT Park rezidentlari va xalqaro Google korporatsiyasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga sarmoya kiritish (uzluksiz malaka oshirish, zamonaviy HR-menejment, qulay ish muhiti va sog'liqni saqlash) tashkilotning raqobatbardoshligiga ikki tomonlama ta'sir qiladi:

Innovatsion ustunlik: Google'ning "20% vaqt" qoidasi va IT Parkdagi mahalliy startaplarda qo'llaniladigan moslashuvchan boshqaruv (Agile) metodologiyalari xodimlarning intellektual salohiyatini kapitallashuvga aylantiradi. Bu tashkilotga bozorda unikal, yuqori texnologik mahsulotlar bilan peshqadam bo'lish imkonini beradi. Narx va sifat bo'yicha raqobatbardoshlik: IT Park korxonalarida xodimlarning doimiy o'qitilishi (upskilling) mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot va xizmatlar tannarxini tushiradi (cost leadership). Shuningdek, yuqori malaka ish jarayonidagi xatolarni kamaytirib, mijozlar sodiqligini va brend nufuzini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiy voqelikda inson kapitaliga yo'naltirilgan mablag'larga majburiy korporativ xarajat emas, balki tashkilot kelajagini belgilovchi eng yuqori strategik investitsiya sifatida qarash lozim. Google va IT Park kabi innovatsion ekotizimlar tajribasi shuni isbotlaydiki, inson resurslarini boshqarishning ilg'or modellarini (HR-KPI, Agile, uzluksiz upskilling) amaliyotga joriy etish — mahalliy kompaniyalarning nafaqat ichki bozorda barqarorlikni saqlashi, balki xalqaro miqyosda ham global ustunlikka erishishini ta'minlovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuz.uz sayti ma'lumotlari
2. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma'lumotlari
3. PMTI va Google korporativ hisobotlari
4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press, 1993.
5. Schultz T.W. Investment in Human Capital. The American Economic Review, 1961.
6. World Bank. Human Capital Project Reports.

UDK: 336.77

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM KREDITLARINING IQTISODIY AHAMIYATI

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КРЕДИТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL CREDITS IN UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM

Gulimboyev Sindor In'omjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O'zMU, Moliya va kredit kafedrasini mudiri
i.f.d., professor **X.X.Rejapov**
ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim kreditlarining oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'lim kreditlari hajmi va undan foydalanuvchilar sonining o'sish dinamikasi tahlil qilinib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim krediti, oliy ta'lim, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, ta'limni moliyalashtirish, ta'lim qamrovi.